

# Bino va inshootlar egallagan yer uchastkalarini soliqqa tortish zonalariga bolish

Ashurov A.

Toshkent 2023

# Kirish

Keyingi yillarda respublikamizda yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, ta'sirchan nazoratni ta'minlash va yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini sohasida munosabatlarni kompleks tartibga solishda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yer resurslarini tizimli hisobga olish va ulardan foydalanishni nazorat qilish, davlat kadastrlarini tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi kartografiya fondini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi doirasida yer qonunchiligiga rioya etish yuzasidan doimiy monitoring qilish tizimi ishlab chiqildi va joriy qilindi, ko'chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish ishlari tashkil etildi, 21 ta davlat kadastrlarini integratsiyalashuvini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Milliy geoaxborot tizimini tashkil etish ishlari boshlandi.

- **Yer resurslarini tizimli hisobga olish va ulardan foydalanishni nazorat qilish, davlat kadastrlarini tartibga solish, O‘zbekiston Respublikasi kartografiya fondini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi doirasida yer qonunchiligiga rioya etish yuzasidan doimiy monitoring qilish tizimi ishlab chiqildi va joriy qilindi, ko‘chmas mulk obyektlarini yalpi xatlovdan o‘tkazish ishlari tashkil etildi, 21 ta davlat kadastrlarini integratsiyalashuvini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Milliy geoaxborot tizimini tashkil etish ishlari boshlandi.**
- **Shu bilan birga, yerdan foydalanish holatining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, yerlardan foydalanishda muntazam davlat nazoratini ta‘minlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, yer resurslarini tizimlashtirilgan holda hisobga olish ishlari yetarli darajada samarali bo‘lmayapti.**


**Sohaga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, ilmiy tadqiqot ishlarini tezkor va samarali amalga oshirishda tarmoqning moddiy-texnik bazasi bugungi kun talablariga javob bermaydi. Amaldagi xodimlar soni, ayniqsa quyi pog'onada, yer resurslaridan foydalanishni nazorat qilish va ularning to'liq hisobini yuritish imkonini bermayapti.**

**Sohaning yetakchi xorijiy tashkilotlari bilan yaqin aloqalar o'rnatish, ilg'or xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va qo'llash, mutaxassislar-ning amaliyot o'tashlari va malakalarini oshirishni tashkil etishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti.**





O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish maqsadida:

- 1. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalari rahbarlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining yer resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish yuzasidan davlat nazoratini hamda tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi ishlari qoniqarsiz, deb hisoblansin.
- 2. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin: yer resurslaridan oqilona foydalanish, geodeziya va kartografiya sohasi faoliyati bo'yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash;
- 3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining:
  - davlat kadastrlari, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohalari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishga mas'ul hisoblanadigan, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi raisining o'rinbosari lavozimini joriy etish;

- 
- 4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining Yer munosabatlari va davlat kadastrlarini rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb ataladi) tashkil etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.
  - 5. Quyidagilar Jamg'arma mablag'larining asosiy manbalari etib belgilansin: O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi organlari tomonidan yerlardan xo'jasizlarcha foydalanganligi yoki ularni yaroqsiz holga tushirganligi, xo'jalik ichidagi yer tuzish loyihalaridan o'zboshimchalik bilan chetga chiqilganligi, davlat yer kadastrini yuritish qoidalari buzilganligi, chegara va cheklov belgilarining yo'q qilinganligi yoki shikastlanganligi uchun O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq solinadigan jarimalarning 100 foizi;
  - 6. Belgilab qo'yilsinki, Jamg'arma mablag'lari: yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri organlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirishga; O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi organlari tizimiga qo'shimcha ravishda kiritilayotgan shtat birliklarini saqlashga;

- 7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasining faoliyatini yanada takomillash-tirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi O‘zbekis-ton Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritsin.




- 
- **8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 15-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasini tashkil qilish to‘g‘risida”gi PF-3502-son farmonining 2-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb, hisoblan-sin.**
  - **9. Mazkur farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.**
  - **Ushbu Farmon “Xalq so‘zi” gazetasining 2017-yil 2-iyundagi 109 (6803)-sonida e‘lon qilingan. (Toshkent sh., 2017-yil 31-may, PF-5065-son)**




- Keyingi yillarda respublikada yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, ta'sirchan nazoratni ta'minlash hamda yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrida sohalaridagi munosabatlarni kompleks tartibga solishga yo'naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Respublikamiz uchun o'ta dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan sug'oriladigan yerlar 4,3 million hektarni, yoki mamlakat umumiy maydonining 9,6 foizini tashkil etib, ularda barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 95 foizdan ortig'i yetishtiriladi.


ҚҚС ставкасининг 3 фоиз пунктга пасайтирилиши иқтисодиёт тармоқларида нархларнинг пасайишига таъсири (0.81%=100%)




➤ **Dasturiy chora-tadbirlar doirasida tizimli ravishda yer resurslarini hisobga olish va yerlardan foydalanishni nazorat qilish, ko'chmas mulk obyektlari, kartografik fondni takomillashtirish yuzasidan yer munosa-batlarini tartibga solish sohasida yer qonunchiligi-ga rioya etish bo'yicha doimiy monitoring qilish tizimi ishlab chiqilib joriy etildi, ko'chmas mulk ob'ektlarini yalpi xatlovdan o'tkazish, 21 ta davlat kadastrlarini integratsiyalashuviga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Milliy geoaxborot tizimini tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.**



- qishloq aholi punktlarida va mahallalarda, ayniqsa, olis hududlarda yerlardan foydalanish holatini muntazam monitoring qilish ishlari yetarli darajada olib borilmayapti;
- mavjud xodimlar soni yer resurslaridan foydalanishni nazorat qilish va ularning hisobini yuritishni to'liq amalga oshirish imkonini bermayapti.



- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo‘mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.



Qabul qilingan hujjatlarda O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- ▶ erdan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, kartografiya va geodeziya faoliyati bo'yicha yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash;
- ▶ erdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan tizimli davlat nazoratini hamda qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etilishi bo'yicha davlat geodeziya nazoratini amalga oshirish;
- ▶ tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ▶ yer tuzish, yerdan foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish sohalarida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha takliflar tayyorlash, yer resurslaridan foydalanish hamda yerdan foydalanish istiqbolini va sxemalarini prognozlashtirish va rejalashtirishda qatnashish;
- ▶ uchuvchisiz apparatlardan foydalangan holda qishloq xo'jalik yerlarini, qishloq xo'jalik ekinlari va ularni parvarishlashni monitoring qilish, geodezik ma'lumotlar va kartografik materiallardan foydalangan holda sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimi ishlashini ta'minlash va boshqalar.

Davlat kadastrlarini yuritishni tashkil etish darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi raisining o'rinbosari lavozimi joriy etildi. U davlat kadastrlari sohasini muvofiqlashtirish, tizimga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish va xalqaro munosabatlarni rivojlantirish ishlariga mas'ul etib belgilandi.

- O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasiga, uning hududiy bo'linmalariga mavjud shtatlarga qo'shimcha ravishda 937 ta muhandis-er tuzuvchilar shtat birligi, shundan 92 foizi qo'mitaning tuman bo'limlariga berilmoqda.
- Qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida qo'mita tizimining tashkiliy tuzilmasi, qo'mita markaziy apparatining tuzilmasi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastr boshqarmalari, tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastr bo'limlarining namunaviy tuzilmasi va xodimlarining cheklangan umumiy soni tasdiqlandi.



ETIBORINGIZ UCHUN RAHMAT